


BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



(2021- yil yanvar
oyi uchun dastlabki
ma'lumot)

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **47,1** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **29,2** mln. AQSh dollariga yoki **38,3 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar, mln. AQSh dollar)

Хизматлар	2020-yil	2021-yil	Оншикирикти % да	Жамига нишбати, % да
Ташои савдо аylanmasi	76,3	47,1	61,7 %	x
Экспорт	25,4	18,2	71,6 %	100,0
<i>tovarlar</i>	24,4	17,4	71,3	95,6
<i>xizmatlar</i>	1,0	0,8	80,0	4,4
Импорт	50,9	28,9	56,8 %	100,0
<i>tovarlar</i>	50,9	28,8	56,5	99,7
<i>xizmatlar</i>	-	0,1	-	0,3



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **18,2** mln. AQSh dollariga (28,4 % ga kamaydi) va import hajmi **28,9** mln. AQSh dollariga (43,2 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida- **10,8** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

BUXORO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar, mln. AQSh dollari)



Xitoy Xalq
Respublikasi
TSA - 9,8
Eksport - 1,8
Import - 8,0



Turkiya
TSA - 7,6
Eksport - 0,9
Import - 6,7



Rossiya
Federatsiyasi
TSA - 6,4
Eksport - 3,3
Import - 3,1



Eron
TSA - 4,9
Eksport - 4,2
Import - 0,7



Afg'oniston
TSA - 3,1
Eksport - 0,2
Import - 2,9



Turkmaniston
TSA - 2,7
Eksport - 0,4
Import - 2,3



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnni bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Afg'oniston, Qирг'из Республикаси, Tojikiston va Eron bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmogda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston (**3,6mln. AQSh dollar**), Rossiya Federatsiyasi (**0,2mln. AQSh dollar**), Tojikiston (**0,5 mln. AQSh dollar**), va Eron (**3,5 mln. AQSh dollar**) shular jumlasidandir. Qolgan 16ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Buxoro, jahoning **60** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (**20,8 %**), Turkiyada (**16,1 %**), Rossiya Federatsiyasida (**13,6 %**), Eronda (**10,4 %**), Afg'onistonda (**7,6 %**), Germaniyada (**6,8 %**) va Turkmanistonda (**5,7 %**) qayd etilgan.



BUXORO VILOYATININGNING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(2021- yil yanvar, mln. AQSh dollar)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Xitoy Xalq Respublikasi	16,2	11,2	9,8
	<i>Eksport</i>	0,2	0,7	1,8
	<i>Import</i>	16,0	10,5	8,0
	Turkiya	3,8	4,0	7,6
	<i>Eksport</i>	0,3	1,8	0,9
	<i>Import</i>	3,5	2,2	6,7
	Rossiya Federatsiyasi	14,3	29,0	6,4
	<i>Eksport</i>	2,1	3,0	3,3
	<i>Import</i>	12,2	26,0	3,1
	Eron	4,1	11,7	4,9
	<i>Eksport</i>	2,2	10,1	4,2
	<i>Import</i>	1,9	1,6	0,7
	Afg'oniston	0,5	4,8	3,6
	<i>Eksport</i>	0,5	4,8	3,6
	<i>Import</i>	-	-	-
	Germaniya	2,1	0,4	3,1
	<i>Eksport</i>	-	-	0,2
	<i>Import</i>	2,1	0,4	2,9
	Turkmaniston	25,0	4,9	2,7
	<i>Eksport</i>	0,3	0,4	0,4
	<i>Import</i>	24,7	4,5	2,3
	Italiya	-	-	2,3
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	2,3
	Qozog'iston	3,4	2,2	1,8
	<i>Eksport</i>	1,7	0,8	0,9
	<i>Import</i>	1,7	1,4	0,9
	Koreya Respublikasi	1,6	1,7	0,8
	<i>Eksport</i>	-	0,1	-
	<i>Import</i>	1,6	1,6	0,8



BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSh dollarri)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Tojikiston	-	0,6	0,8
<i>Eksport</i>	-	0,6	0,7
<i>Import</i>	-	-	0,1
Polsha	0,1	0,3	0,4
<i>Eksport</i>	-	0,3	0,4
<i>Import</i>	0,1	-	-
Latviya	-	-	0,4
<i>Eksport</i>	-	-	0,4
<i>Import</i>	-	-	-
Belarus Respublikasi	0,6	0,3	0,2
<i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
<i>Import</i>	0,6	0,2	0,1
Ukraina	1,3	1,0	0,2
<i>Eksport</i>	0,1	0,3	0,1
<i>Import</i>	1,2	0,7	0,1
Qirg'iz Respublikasi	0,9	0,7	0,2
<i>Eksport</i>	0,9	0,5	0,2
<i>Import</i>	-	0,2	-
Pokiston	0,1	-	0,2
<i>Eksport</i>	-	-	0,1
<i>Import</i>	0,1	-	0,1
Hindiston	0,3	0,1	0,2
<i>Eksport</i>	-	-	0,1
<i>Import</i>	0,3	0,1	0,1
Buyuk Britaniya	-	-	0,2
<i>Eksport</i>	-	-	0,2
<i>Import</i>	-	-	-
Ozarbayjon	-	0,1	0,1
<i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
<i>Import</i>	-	-	-



VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar, 2021- yil)



	Mln. AQSh dollarri	O'sish sur'ati, % da
Viloyat	47,1	61,7
<i>hududlar:</i>		
Olot	1,3	52,2
Buxoro	0,9	98,3
Vobkent	0,7	92,6
G'ijduvon	6,7	114,2
Kogon	3,3	44,0
Qorako'l	1,2	4,8
Qorovulbozor	1,4	42,5
Peshku	4,2	123,8
Romitan	9,7	3,6 b.
Jondor	2,8	161,6
Shofirkon	1,8	79,7
Buxoro sh.	8,1	89,0
Kogon sh.	2,1	64,6
Aniqlanmagan tashkilotlar	2,9	37,2

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollarri

Romitan- 9,7

Buxoro sh. – 8,1

G'ijduvon - 6,7

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollarri

Shofirkon- 1,8

Qorako'l- 1,2

Buxoro - 0,9

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Romitan tumani **20,6 %** ulush bilan **9,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Buxoro tumani **1,9 %** ulush bilan **0,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.





Viloyatning tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021- yilning yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **26,4 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **24,7%** ga kamaygan.

VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(2021- yil yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar oyida 2020- yilga nisbatan **24,8 %** ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **73,7 %** ni tashkil etdi.



BUXORO VILOYATNING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar, mln. AQSh dollarari)



1992-yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo bo'ldi. Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar holatiga **12,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport - **5,8** mln. AQSh dollariga yetgan bolsa, import – **6,6** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.


Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**13,5 %**), Qozog'iston (**3,9%**), Turkmaniston (**5,6 %**) va Tojikiston (**1,6 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



BUXORO VILOYATINING EKSPORTI (2021-yil yanvar)

Joriy yilning yanvar oylarida mamlakatning eksportiyorlari soni **148** tani tashkil etib, ular tomonidan **18,2** mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **28,4** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **95,8** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**37,0** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**15,9** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**0,8** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



BUXORO VILOYATI XSST BOYICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	25,4	18,2	3,0 b.	71,6	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,6	3,0	103,4	115,4	10,2	15,9
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	3,5 b.	-	-	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,4	4,1	24,3	39,4	41,2	22,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,5	3,2	12,0	71,1	17,6	17,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	-	-	-	0,3	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	0,1	5,9	50,0	0,8	0,8
Sanoat tovarlari	5,8	6,7	29,3	115,5	22,9	37,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	0,1	-	-	-	0,3	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,7	0,2	22,0	28,6	2,9	1,2
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	1,0	0,8	94,2	8,0 b.	3,8	4,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)



XSST bo'lumi nomi	Mln. AQSh dollarri	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	1,7	188,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,02	9,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalangan donlardan tashqari)	0,1	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,1	-
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,2	2,0 6.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Qog'oz massasi va makulatura	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	2,6	90,8
Elektr toki	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,6	39,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	-	-
Birlamchi shakldagi plastmassalar	-	-
O'g'itlar	0,02	33,3
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,1	100,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)






XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dolları	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xhash mahsulotlar	0,3	75,0
Rangli metallar	-	-
Cho'yan va po'lat	-	-
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunaları		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	-	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,1	33,3
Har xil tayyor buyumlar	0,1	-
Poyabzal	-	-
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Boshqa tovarlar		
Maxsus operatsiyalar va turlariga ko'ra tasniflanmagan tovarlar	-	-



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariiga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yil yanvardagi **22,8** % dan 2021- yil yanvarda **31,9** % ga ko`paydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **68,1** % ni tashkil etdi.



BUXORO VILOYATIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2021- yil yanvar, % da)

2021- yil yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron (eksport umumiyligi 23,1 %), Afg'oniston (19,8 %), Rossiya Federatsiyasi (18,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (9,9 %), Qozog'iston (4,9 %), Turkiya (4,9 %), va Tojikiston (3,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **84,5** foizni tashkil etmoqda.

**BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar, yillar kesimida)**



Davlatlar	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Eron	10,1	4,2	4,6 b.	41,6	1	1
Afgoniston	4,8	3,6	9,6 b.	75,0	2	2
Rossiya Federatsiyasi	3,0	3,3	142,9	110,0	3	3
Xitoy Xalq Respublikasi	0,7	1,8	3,5 b.	2,6 b.	6	4
Qozog'iston	0,8	0,9	47,1	112,5	4	5
Turkiya	1,8	0,9	4,5 b.	50,0	5	6
Tojikiston	0,6	0,7	-	166,7	8	7
Polsha	0,3	0,4	-	133,3	12	8
Latviya	-	0,4	-	-	28	9
Turkmaniston	0,4	0,4	133,3	100,0	10	10
Qirg'iz Respublikasi	0,5	0,2	55,6	40,0	9	11
Germaniya	-	0,2	-	-	30	12
Ozarbayjon	0,1	0,1	-	100,0	19	13
Buyuk Britaniya	-	0,1	-	-	33	14
Misr	-	0,1	-	-	32	15
Belarus Respublikasi	0,1	0,1	-	100,0	17	16
Pokiston	0,1	0,1	-	100,0	20	17
Ukraina	0,3	0,1	-	33,3	11	18
Hindiston	-	0,1	-	-	31	19
Litva	-	0,1	-	-	29	20

BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar)



	Mln. AQSh dollarlari	O'sish sur'ati, % da
Viloyat	18,2	71,6
<i>hududlar:</i>		
Olot	1,0	174,7
Buxoro	0,1	36,5
Vobkent	0,2	2,1 b.
G'ijduvon	2,8	60,3
Kogon	0,9	15,1
Qorako'l	0,8	51,6
Qorovulbozor	0,9	50,5
Peshku	1,7	101,3
Romitan	1,6	14,8
Jondor	0,3	37,7
Shofirkon	0,5	34,4
Buxoro sh.	4,2	150,2
Kogon sh.	0,2	44,1
Aniqlanmagan tashkilotlar	3,0	85,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollarlari

Buxoro sh. - 4,2

G'ijduvon - 2,8

Peshku - 1,7

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollarlari

Romitan -1,6

Olot- 1,0

Kogon - 0,9

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Buxoro shahri **23,1** % ulush bilan **4,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Kogon tumani **4,9** % ulush bilan **0,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoxda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **1,8** mln. AQSh dollari qiymatli **4,5** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020-yilning mos davriga nisbatan **0,9** mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, **16,5 %** ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **1,5** mln. AQSh dollariga teng **3,9** ming tonna sabzavot, shuningdek, **0,1** mln. AQSh dollari qiymatidagi **0,2** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar)



Meva va rezavorlar

219,0 tonn.

69,3 ming AQSH dollari

Uzum

386,3 tonn.

192,6 ming AQSH dollari

Yer yong' oq

20,0 tonn.

34,4 ming AQSH dollari

Sabzavotlar

3911,0 tonn.

1484,2 ming AQSH dollari

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston, Xitoy xalq respublikasi hamda Rossiya Federatsiyasi davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **9,8 %** ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar)




Davlatlar	ming tonna	mln. AQSh dollarari	ulushi, % da *
Rossiya Federatsiyasi	0,1	0,1	4,0
Qozog'iston	3,5	1,0	57,3
Pokiston	0,1	0,03	1,9
Xitoy Xalq Respublikasi	0,7	0,4	24,9
Afg'oniston	0,2	0,2	11,8

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keladi. Bu meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **57,3 %** ini tashkil qiladi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **0,8** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **4,2** % ini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **21,4** % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**56,1** %) va safarlar (turizm) (**27,9** %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar (**10,0** %) va boshqa xizmatlar (**6,0** %) ni tashkil etgan.




BUXORO VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar)

2021- yil yanvar oyida import hajmi **28,9** mln. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **56,8 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**54,9 %**), sanoat tovarlari (**12,2 %**) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**10,1 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yil yanvarda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **22,0** mln. AQSh dollariga kamaydi va **28,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **0,1** mln. AQSh dollariga yetdi.

BUXORO VILOYATINING XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	50,9	28,9	68,8	56,8	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,6	1,3	105,0	81,3	3,1	4,5
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,3	1,0	123,5	76,9	2,6	3,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	25,7	2,3	136,2	8,9	50,5	8,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	-	-	-	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3,2	2,9	94,3	90,6	6,3	10,1
Sanoat tovarlari	4,5	3,5	53,3	77,8	8,8	12,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	8,9	15,9	2,8 b.	178,7	17,4	54,9
Turli xil tayyor buyumlar	5,8	1,8	97,7	31,0	11,3	6,1
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	-	0,1	-	-	-	0,3

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)



XSST bo'lumi nomi	Mln. AQSh dollarlari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,5	-
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	-	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	-	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	-	-
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	-	-
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2,3	8,9
Ko'mir, koks va briketlar	0,9	75,0
Elektr toki	-	-
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,1	-
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,1	100,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,0	111,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	-	-
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	-	-




XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollarri	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	-	-
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1,0	90,9
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	66,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	-	-
Avtomobilarning ehtiyoj qismlari	-	-
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulovlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	-	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalarini uchun armatura va mahkamlash moslamalari	-	-
Har xil tayyor buyumlar	-	-
Boshqa tovarlar		
Maxsus operatsiyalar va turlarga ko'ra tasniflanmagan tovarlar	-	-




MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollar, ulushi, % da)



2021- yil yanvar oyi yakuni bo'yicha Buxoro viloyati tomonidan **39** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya ederatsiyasi, Germaniya, Italiya, Turkmaniston va Qozog'iston) jami importning **90,7** % ulushini tashkil qildi, bu **26,2** mln.AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR NING ULUSHI
(2021- yil yanvar, % da)



**BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI
VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar, yillar kesimida)**




Davlatlar	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	10,5	8,0	65,6	76,2	2	1
Turkiya	2,2	6,7	62,8	3,0 b.	4	2
Rossiya Federatsiyasi	26,0	3,1	2,1 b.	11,9	1	3
Germaniya	0,4	2,9	19,0	7,3 b.	10	4
Italiya	-	2,3	-	-	23	5
Turkmaniston	4,5	2,3	18,2	51,1	3	6
Qozog'iston	1,4	0,9	82,3	64,3	7	7
Koreya Respublikasi	1,6	0,8	100,0	50,0	5	8
Eron	1,6	0,7	84,2	43,7	6	9
Belarus Republikasi	0,2	0,2	33,3	100,0	11	10
Ukraina	0,7	0,1	58,3	14,3	-	11
Tojikiston	-	0,1	-	-	26	12
Hindiston	0,1	0,1	33,3	100,0	13	13
Pokiston	-	0,1	-	-	25	14
Belgiya	-	0,1	-	-	21	15
Litva	0,1	0,1	50,0	100,0	18	16
Singapur	-	0,1	-	-	27	17
Fransiya	0,1	0,1	33,3	100,0	15	18
Yaponiya	-	0,1	-	-	28	19
Estoniya	-	0,1	-	-	30	20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2021- yil yanvar)



Viloyat	Mln. AQSh dollarlari	O'sish sur'ati, % da
<i>hududlar:</i>		
Olot	0,3	16,5
Buxoro	0,8	140,6
Vobkent	0,5	72,3
G'ijduvon	3,9	3,1 b.
Kogon	2,4	144,0
Qorako'l	0,4	1,5
Qorovulbozor	0,6	34,2
Peshku	2,5	145,7
Romitan	8,0	3,1 b.
Jondor	2,5	2,4 b.
Shofirkon	1,3	156,4
Buxoro sh.	3,9	62,0
Kogon sh.	1,8	68,8
Aniqlanmagan tashkilotlar	0,05	1,1



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Romitan tumani **27,7 %** ulush bilan **8,0 mln. AQSh dollarini** tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Qorako'l tumani **1,4 %** ulush bilan **0,4 mln. AQSh dollarini** tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi.
Tel.: (65) 223-75-63

